



**O'ZBEK MILLIY CHOLG'U IJROCHILIGIDA TANBUR
CHOLG'USINING TUTGAN O'RNINI**

Muhammadiyev Aziz Otaqulovich

Qarshi davlat universiteti

Cholg'u ijrochiligi mutahassisligi magistranti

Tel: 91-212-26-00

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p1-06>

ARTICLE INFO

Received: 23th January 2023

Accepted: 03rd February 2023

Online: 04th February 2023

KEY WORDS

"Tanbur", "An'anaviy ijrochilik",
"Musiqiy risola", "Entomusiq",
Sharq mutafakkirlari,
Zamonaviy milliy madaniyat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek milliy tanbur cholg'usi xususida tarixiy manbalarda buyuk allomalarimiz tomonidan meros qilib qoldirilgan musiqiy risolalar atroflicha o'rganildi. Tarixiy manbalarni o'rganishda katta hissa qo'shgan o'zbek musiqashunos olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari tavsif etilgan.

Kirish

An'anaviy cholg'u ijrochilik - o'zbek musiqa ijrochilik san'atining qadimiy turlaridan biri bo'lib, insoniyat hayoti, ma'naviyati, ruhiyati va rivojiga beqiyos madad beruvchi omildir. Sozandalikda shu boisdan ham uzoq o'tmishdan o'ziga xos an'analar vujudga kelgan. Bu an'analar xalq orasida ardoqlanib, turli ko'rinish, uslub va yo'nalishlarda rivojlanib, avlodlardan avlodlarga o'tib, o'z ma'naviy salohiyatini saqlab kelmoqda. Boshqacha qilib aytganda, milliy cholg'u ijrochilik san'ati jonli jarayondir. Musiqa san'atining beqiyos va o'lmas an'alarini o'zlarida mujassam qilib, ularni zamonaga mos tarzda rivojlantirish zabardast va ulkan qalb egalariga xosdir. Ularning ijodi, ijro yo'llari va talqin uslublarini o'rganish, musiqaning cheksiz sir-sinoatlaridan voqif bo'lish, madaniy boyligimizni qadrlash bilan birga yosh avlodni ona - Vatanga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalashda ham keng imkoniyatlarni ochib beradi. Sozandalikning muhim tomoyilaridan yana biri ko'ngilda ezgu his-tuyg'ularni kamol toptirib, insonni hayotni sevishga, ardoqlashga undashidir. Shu boisdan sozandalar azal-azaldan ma'naviyat kuychilari sifatida e'zozlanib kelingan. She'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, "Shodlik oshiruvchi xonanda, g'amni tarqatuvchi sozanda - bularning har ikkisiga hissiyotga berilgan kishilar va ahli dardlar jon fido qiladilar. ("Mahbub ul qulub"dan).

E'tiboringizga xavola etlayotgan ushbu maqolamiz kelajakda tanbur sozini o'zlashtiradigan mutaxassislar uchun foydali manba bo'lib xizmat qilishiga aminmiz.

Darhaqiqat ma'naviy uyg'onish odamlarning o'zligini anglash, milliy g'urur, oriyat, avlod-ajdodlarimiz o'tmishidan faxrlanish, kelajak har kimning o'z qo'lida, mehnatida va ongli faoliyatida ekanligini his qilishda namoyon bo'lmoqda. Bunday ma'naviy o'zgarishlarni ilmiy tadqiq etish vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, odamlarimizda milliy g'urur, istiqbolga ishonch tuyg'ularini kuchaytirishga xizmat qiladi.



Millatning ma'naviy va intellektual potensialini, odamlarning aqliy va ruhiy madaniyatlarini yuksaltirishga xizmat qiladigan ijtimoiy va badiiy omillarni o'rganish, tadqiq etish va umumlashtirish dolzarb masala bo'lib qoldi.

Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: "Ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat va axloq haqidagi asarlarni ko'plab chop etish, ayniqsa, madaniy meros bilan birga yangilanayotgan bugungi turmush tarzini va yangicha tus olayotgan jamiyatimiz mazmun-mohiyatini teranroq yoritish, kengroq o'rganish muhimdir"¹.

Shunday ekan, mustaqillik ma'naviy komil insonni voyaga yetkazish va tarbiyalashni asosiy masala qilib qo'yar ekan, bunday ijtimoiy siyosiy va ma'naviy-madaniy jarayonni amalga oshirish muammolarini tadqiq etish nihoyatda muhimdir.

Inson ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda juda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan milliy musiqiy madaniyat va uning milliy zamonaviy cholg'u ijrochiligi namunalarining hozirgi zamon kishisi ma'naviyatida, madaniyatida tutgan o'rnini tadqiq etish katta ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada xalq ma'naviyatini, madaniyatini yuksaltirishda an'anaviy cholg'u ijrochiligida tanbur cholg'usining tutgan o'rni va ijrochilik uslublari tahlil qilinmoqda. Zero I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" kitobida alohida e'tibor berganlaridek, "Biz hamma vaqt keng aholi qatlamlarining ham mumtoz, ham zamonaviy milliy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahra olishiga imkon berib kelgan madaniyat sarchashmalarini asrab-avaylashni o'rganib olishimiz lozim. O'zbekistonda musiqa, tasviriy, monumental va amaliy san'at sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishilganligi tasodifiy emas. Bu san'at turlari chet elda keng e'tirof etilgan. Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni ma'naviy tarbiyalashning asosi bo'lmog'i kerak"².

Birinchi sobiq prezidentimizning fikrlari milliy musiqa madaniyati yoshlar ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda katta ijtimoiy-tarbiyaviy va badiiy-estetik ahamiyat kasb etuvchi dolzarb ilmiy va amaliy masala ekanligini ko'rsatadi.

Milliy musiqaning inson ma'naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati davlat miqyosidagi ishlardan biri ekanligi Prezidentimizning Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 3 fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlarida hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorlarida o'z ifodasini topgan.

Bu qaror va farmonlar, xalqimiz, ayniqsa yosh avlod ongiga bebaho boylik hisoblangan milliy musiqa madaniyatiga bo'lgan hurmat va havas tuyg'ularini singdirish, ularda ma'naviy merosimizga mehr – muhabbat hislarini yuksaltirish vazifalarini bajarish bosh maqsadlardan biri sifatida qo'yiladi.

Qudratli kuchga ega bo'lgan tanbur cholg'usining sehrli ohanglari o'z jozibasi bilan inson qalbini qamrab oladi. Shu boisdan musiqani xalqning, millatning qalbi deb bejiz aytmaydilar.

¹ Karimov I.A Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – Toshkent: O'zbekiston 1995, 55-b

² Karimov I.A O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. – Toshkent: O'zbekiston 1997, 150-b



Cholg'u ijrochiligida an'anaviy tanbur cholg'usining ijrochilik uslublari va tarannumi alohida o'z o'ringa ega. Tanbur cholg'usidan taraladigan kuylar ulkan ta'sirchan kuchga ega bo'lgan tarbiya vositasidir. Cholg'u ijrochiligi inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bera oladigan jon ozig'idir. U kishilarning zavqlanishi, huzurlanishi, rohatlanishi, maroqli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi, falsafiy mushohada qilishi uchun yordam beradi.

Demak, cholg'u ijrochiligi faqat badiiy ijod yoki musiqa yo'li bo'lib qolmasdan, balki ma'naviy madaniyatning muhim bir qismi sifatida ham o'rganilishi lozim.

USULLAR:

- Tanbur cholg'usining tadriji va takomillashuv jarayonlari yuzasidan tarixiy manbalarni o'rganish;
- An'anaviy cholg'u ijrochiligida tanbur cholg'usining ma'naviy komil insonni shakllantirishdagi ahamiyatini ko'rsatish;
- Sharq mutafakkirlari va musiqashunoslarining nazariy merosi zahirida tanbur cholg'usi ohangining inson ma'naviyati va madaniyatida tutgan o'rnini yoritish;
- Tanbur cholg'usining tuzilish va ijro uslublari milliy cholg'u ijrochilik kesimida yoritish;
- Zamonaviy milliy madaniyatda tanbur cholg'u ijrochiligi san'atining inson ma'naviy saviyasi o'sishiga ta'sirini tahlil qilish;

Sharq mutafakkirlarining musiqaga oid traktatlari, O'zbekiston musiqashunoslarining milliy musiqiy madaniyat xususidagi tadqiqotlari hamda an'anaviy xalq musiqasiga doir boy merosimiz, tanbur cholg'usi ijro uslublari namunalarini tahlil qilindi va umumlashtirildi.

Sharq allomalarining fozil inson, ma'naviy kamolot, ma'naviyat, san'at, musiqa, odob-axloqqa doir ta'limotlari va hozirgi zamon musiqashunos va madaniyatshunos olimlarining bu boradagi diqqatga sazovor fikrlari olindi.

Shuningdek, madaniy meros, ma'naviyat, ma'rifat, ta'lim va tarbiya, milliy san'at turlarining rivojlantirish haqidagi Respublikamiz Prezidentining farmonlari, qarorlari, nutqlari, ilmiy-nazariy asarlari, Vazirlar Mahkamasi, Madaniyat vazirligining maxsus qaror hamda hujjatlari ilmiy - tadqiqotimiz uchun metodologik manba bo'lib xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

An'anaviy cholg'u ijrochiligida tanbur cholg'usining tutgan o'rnini va ijrochilik uslublari insonni ma'naviy kamol toptirishning muhim omili sifatida hozirgacha madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan maxsus o'rganilmagan bo'lsada, bu mavzuga asos bo'ladigan fikrlar turli tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

Zamonasining ulug' mutafakkiri va olimi Abu Nasr Muhammad al-Forobiy o'zining "Kitabul - musiqiy al-kabir" ("Musiqaga doir katta kitob") asarida tanbur sozini o'sha davrlarda, ya'ni X asrda, Xurosonli va Bag'dodli kabi turlari mavjud bo'lganligi haqida ma'lumot bergan, keyinchalik, XIV asrda Samarqandda, Amir Temur saroyida uzoq yillar davomida o'zining benazir san'ati bilan xizmat qilib dovuq qozongan sozanda Xo'ja Abdulqodir tanburning shirvoniy, turkiy turlari bilan bir qatorda "nay tanbur" deb nomlanuvchi kamolli turi ham mavjudligini eslatib o'tgan. Hamda buyuk Sharq mutafakkirlari: Al-Kindiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Burhoniddin Marg'iloniy, Darvesh Ali Changiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, shuningdek, keyingi davr ma'rifatparvarlari - Furqat, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Behbudiy kabilarning asarlarida o'z aksini topgan.



Bu borada O'zbekiston Respublika Fanlar akademiyasi San'atshunoslik institutida ham "Milliy musiqiy cholg'ular" to'g'risida va zamonaviy musiqa san'ati bo'yicha ilmiy qo'lyozmalar yaratgan respublikamiz musiqashunoslaridan I.Rajabov, F.Karomatov, T.Vizgo, T.G'ofurbekov, R.Abdullayev, S.Boltazoda, O.Matyoqubov, R.Yunusov, A.Nazarov, O.Ibrohimov, R.Abdullaev, N.S.Yanov-Yanovskaya, M.Hamidova, A.Jumaev, N.Toshtemirov, J.Rasultoev va boshqalar diqqatga sazovor tadqiqotlar yaratdilar.

Yuqorida aytib o'tilgan ota-bobolarimiz, adibu-ulamolarimiz va hozirgi kunda izchil izlanishlar olib borayotgan olimlarimiz asarlari shuni tasdiqlaydiki, musiqa insonni ruhan ham qalban komillikka yetaklovchi bir vosita. Chunki musiqa azal-azaldan nafaqat an'anaviy bayram tomoshalarda, balki, kundalik hayotimizda bizga doimo yo'ldosh bo'lib kelgan. Shu bilan birga an'anaviy cholg'u ijrochiligida tanbur cholg'usining tutgan o'rni va ijrochilik uslublarining yuqori daraja va saviyalarda bo'lgan namunalari hamda ularning turfa ijrochilik san'ati bilan bog'liq holda madaniy hayotimizda o'zining ijrochilik san'ati bilan hissa qo'shgan ustoz tanbur cholg'usi moxirlari ijod namunalari va ijro uslublari ham tanbur cholg'usi ijrochiligining rivojida keng ahamiyati borligini nazarda tutish kerak, albatta. Milliy cholg'u ijrochiligiga mansub Tanbur cholg'usining madaniy hayotimizda tutgan muhim o'rnini aniqlash hamda "ustoz-shogird" an'analari vositasida bizgacha yetib kelgan ijrochilik an'analari va xos asarlarini (repertuarini) ijro uslubi ilmiy asoslab berish bugungi kunning asosiy maqsadi bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Mazkur maqolamizda an'anaviy cholg'u ijrochiligida tanbur cholg'usining tutgan o'rni va ijrochilik uslublari madaniy va ma'naviy yuksalish omili sifatida madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan o'rganildi:

- Zamonaviy milliy madaniyatni an'anaviy ijrochilik asosida yuksaltirish masalalari milliy mafkura nuqtai nazaridan tadqiq etildi;
- Sharq mutafakkirlari va musiqashunoslarining, an'anaviy ijrochilikda tanbur cholg'usi ijrochiligining roli va ahamiyatiga doir qarashlari, ijrochilik uslublari qiyosiy o'rganildi;
- Milliy merosimizning ulkan boyligi sfatida tanbur cholg'usi ma'naviy komil insonni shakllantirishda katta ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatildi;
- Tanbur cholg'usi ijrochilik uslublari o'rganildi va milliy kuylar kesimida tahlil qilindi;

An'anaviy cholg'u ijrochiligida tanbur cholg'usining tutgan o'rni va ijrochilik uslublarini shakllanish jarayonidagi nazariy asoslari, tarixiy tajribalar, an'analari, zamonaviy holati, milliy kuylarning ijrosidagi ohanglarni o'rganish tahlillari tadqiq etilgan.

Maqolada keltirilgan nazariy fikr va g'oyalar, xulosalar an'anaviy cholg'u ijrochiligida tanbur cholg'usining tutgan o'rni va ijrochilik uslublari hamda san'atshunoslik fanlarining badiiy estetik tarbiya masalalariga bag'ishlangan bo'lib, inson ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirish, san'at va madaniyat o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan o'quvchi hamda talaba yoshlar uchun amaliy qo'llanma vazifasini bajarishi mumkin.

Maqola natijalarining ilmiy ahamiyati: belgilangan maqsad va vazifalarni o'rganish va yoritib berish – san'atshunoslik, etnomusiqashunoslik va cholg'ushunoslik sohalariga muhim hissa qo'shadi hamda nazariy xulosalar tanbur cholg'usini ijro uslublarini o'rganishda, an'anaviy



ijrochilikda tanbur cholg'usining ijrochilik uslublari madaniy meros sifatida ommalashib borishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Maqolada bayon etilgan ma'lumotlar, tanbur ijrochiligida, shuningdek, o'quv amaliyotida qo'llanilishi mumkin. Tadqiqot doirasida yoritilgan tanbur cholg'usi ijrochilarining o'ziga xos ijro uslublari, yosh kelajak avlodning ijro amaliyotida amaliy ko'mak beradi. Ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy natijalar oliy ta'lim tizimidagi musiqiy o'quv fanlarida ham foydalanish imkonini beradi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (1995-yil, 20-oktyabr) Farmoni // O'zbekiston ovozi. – Toshkent: 1995, 21-oktyabr.
2. Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 8-iyul, PQ-910-sonining 1-ilovasi 2-bandi.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston" – 2017y.
5. Alimatov T. Soz vasfi. Sharq yulduzi, 1. 1996.
6. Karomatov F. O'zbek xalq musiqa merosidan. M.30-44637.
7. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va tarixi. T., 1993.
8. Rajabiy Y. O'zbek xalq musiqasi. 1- 4 -jildlar. T., 1955-58.
9. Umarov A. Tanbur navolari. T., 1995.
10. Qosimov R. An'anaviy tanbur ijrochiligi. T., 2008.